

## “O‘ZBEKINVESTDAN SUYUNCHI 5” AKSIYASI QOIDALARI

### 1. Aksiyani o‘tkazish tartibi va o‘tkazilish hududi

1. “O‘zbekinvestdan Suyunchi 5” aksiyasi (keyingi o‘rinlarda Aksiya deb yuritiladi) “O‘zbekinvest” EISK” AJ ijobiy imidjini shakllantirish, mijozlarning sodiqligini saqlash va mijozlarni jalb qilishga qaratilgan reklama kampaniyasi doirasida amalga oshirilmoqda.
2. Rag'batlantirish "RANDOM.ORG" platformasi orqali amalga oshiriladi. Tadbir hududi – O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri.

### 2. Aksiya tashkilotchisining nomi

3. “O‘zbekinvest” eksport-import sug'urta kompaniyasi. Yuridik manzili: 100097, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yunsobod tumani, Niyozbek yo‘li 3-tor ko‘cha, 3-uy.
4. Aksiyaning amal qilish muddati 2026 yil 5-apreldan 2026-yil 30-noyabrgacha.
5. Aksiya g‘oliblarini aniqlash aksiya davomida xar oyning yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar, bosh sovrin avtomobili 2026 yil 25 dekar sanasiga qadar.
6. Sovg‘a fondi har oy 2 ta - **iPhone 17 pro** smartfoni hamda aksiya yakunida bosh sovrin **BYD Song Plus DM-i UzPride** avtomobili, shu jumladan sovrindorlarning soliq to'lovlari. Belgilangan sovg'alar almashtirilmaydi va ularni naqd pul bilan almashtirib bo'lmaydi. Boshqa sovg'alar bilan almashtirish mumkin emas.

### 3. Aksiya ishtirokchilari va Kompaniyaning huquq va majburiyatlari

7. Aksiyada layoqatli mijozlar, jismoniy shaxslar, 18 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etishlari mumkin.
8. Kompaniya xodimlari, yaqin qarindoshlari va ularning oila a‘zolarining Aksiyada ishtirok etishi taqiqlanadi.
9. Aksiya tugatilgandan so‘ng, Kompaniya Internet tarmog‘ida <http://insurance.uz> veb-saytida Aksiyaning tugatilganligi to‘g‘risidagi xabarni e‘lon qilishi yoki to‘xtatilganligi to‘g‘risida boshqacha tarzda ommaviy ravishda xabardor qilishi shart.
10. Kompaniya Aksiya qoidalarini buzgan Aksiya g‘olibiga Sovg‘a berishni rad etishga haqli.
11. Aksiya tashkilotchisi – Kompaniya hech qanday qo‘shimcha roziligisiz Aksiya g‘oliblarining fotosuratlarini nashr etish va intervyu olish yoki ommaviy axborot vositalarida intervyu e‘lon qilish huquqiga ega.

### 4. Aksiyada ishtirok etish va g'oliblarni aniqlash tartibi

12. “O‘zbekinvest” kompaniyasidan ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari bo‘yicha sug'urta polislarini sotib olgan jismoniy shaxslar orasidan Kompaniyaning Insurance.uz, “Uzbekinvest” mobil ilovasi hamda Kompaniya bilan hamkorlikda ishlaydigan boshqa marketplayslar (Click, MyGov va boshqalar) orqali majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlaridan **50 ming so‘m** va undan yuqori sug'urta polisini harid qilgan jismoniy shaxslar aksiya ishtirokchilari hisoblanadi.
13. Aksiya 2026-yil 5-apreldan 2026-yil 30-noyabrga qadar davom etadi.
14. Aksiya g‘oliblari aksiya davomida xar oyning yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar bir kunda ishtirokchilar orasidan tasodifiy tanlash yo‘li orqali go‘liblar aniqlanadi.
15. Aksiya g‘oliblari Kompaniyaning Instagram’dagi rasmiy sahifasi orqali jonli efirda aniqlanadi

16. Aksiya g'oliblari yutuqlarni qabul qilib olish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID-karta), sug'urta polisini sotib olganligini tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasini taqdim etishlari shart.
17. Aksiya g'oliblarni aniqlash shakllantirilgan elektron ro'yxatdagi ishtirokchilar orasidan tasodifiy tanlov asosida amalga oshiriladi. Elektron ro'yxatda har bir ishtirokchining F.I.SH., polis seriyasi va raqami, hududi hamda identifikatsiya (ID) raqami aks etadi..
18. "RANDOM.ORG" platformasida aniqlangan ishtirokchi g'olib bo'ladi.
19. Ushbu protsedura sovg'alar to'liq aniqlanmaguncha takrorlanadi.
20. Kompaniya vakili e'lon qilingan g'olibga Aksiya g'olibi sertifikatini beradi. G'olib Aksiya o'ynalganidan keyin \_\_ish kuni ichida Kompaniya filialiga kelib, shaxsini tasdiqlashi va polisning nusxasini yoki asl nusxasini taqdim etishi hamda sertifikat olishi kerak. Sertifikat olgandan so'ng, topshirish va qabul qilish dalolatnomasi tuziladi.
21. Aksiya g'olibi Aksiya vaqtida sovg'adan voz kechish huquqiga ega. Agar g'olib sovg'adan bosh tortsa, Kompaniya sovg'ani o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish huquqiga ega va sovrin yana o'ynaladi.
22. Ishtirokchi tomonidan yuqoridagi sug'urta turi bo'yicha shartnomani Aksiya o'tkazish davrida va sug'urta muddatini hisobga olmaganda pul mablag'larini qaytarish muddatidan oldin bekor qilinishi bunday ishtirokchining sovg'a o'yinida ishtirok etish huquqidan mahrum bo'lishiga olib keladi.
23. Aksiya sovrindorlarini aniqlash bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, u komissiya tomonidan tuziladi, komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi va aksiya tashkilotchisida saqlanadi.
24. Aksiya natijalari va go'liblari kompaniyaning <http://uzbekinvest.uz>, <http://insurance.uz>, facebook, Instagram, Telegram veb-saytida internet tarmog'ida joylashtirib boriladi.

#### **5. Aksiya ishtirokchilarini xabardor qilish tartibi**

25. Aksiya ishtirokchilarini Aksiyani o'tkazish muddatlari va uning shartlari to'g'risida xabardor qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:
  - Aksiya shartlarini [insurance.uz](http://insurance.uz) veb-saytda joylashtirish;
  - 71 207 60 00 ishonch telefoni orqali;
  - Aksiya tashkilotchisining ixtiyoriga ko'ra boshqa yo'llar bilan.